KONSTITUTSIYA TARAQQIYOTIMIZNING KELAJAGIDIR

Rahimjon Hasanov

YeMU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi O'zbekiston uchun katta qadam ekanligi, u mamlakat siyosiy tizimini modernizatsiya qilish, demokratik boshqaruvni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish, iqtisodiy o'sish va taraqqiyotga ko'maklashishga qaratilganligi yuzasidan fikr mulohazalar berilgan. Shuningdek, O'zbekiston xalqi bo'lajak referendumda ma'qullasa, yangi Konstitutsiya mamlakatning yanada farovon va demokratik kelajagi uchun poydevor yaratishi alohida takidlangan.

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, umumxalq refendumi, demokratiya, konstitutsiyaviy komissiya, demokratik boshqaruv, inson huquqlari, sud hokimiyati, xalqaro hamjamiyat, xalqaro kuzatuvchilar.*

Аннотация. В статье говорится, что принятие новой Конституции является большим шагом для Узбекистана, что она направлена на модернизацию политической системы страны, укрепление демократического управления, защиту прав человека, содействие экономическому росту и развитию. Также было подчеркнуто, что новая Конституция, в случае одобрения народом Узбекистана на предстоящем референдуме, создаст основу для более благополучного и демократического будущего страны.

Ключевые слова: *Конституция Республики Узбекистан, национальный референдум, демократия, конституционная комиссия, демократическое управление, права человека, судебная система, международное сообщество, международные наблюдатели.*

Abstract. The article states that the adoption of the new Constitution is a big step for Uzbekistan, that it aims to modernize the country's political system, strengthen

democratic governance, protect human rights, and promote economic growth and development. It was also emphasized that the new Constitution, if approved by the people of Uzbekistan in the upcoming referendum, will create a foundation for a more prosperous and democratic future of the country.

Key words: *Constitution of the Republic of Uzbekistan, national referendum, democracy, constitutional commission, democratic governance, human rights, judiciary, international community, international observers.*

Konstitutsiya yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi rivojiga xizmat qilishi, eng avvalo esa “Inson qadri uchun” g‘oyasini ustuvor yo‘nalish sifatida belgilashi kutilmoqda. Darhaqiqat, shu maqsadda insonning qadr-qimmati, sha’ni va g‘ururi ustuvor maqsad qilib olingan, izchil va puxta o‘ylangan, bir necha bosqich davomida ishlab chiqilgan. Yangi Konstitutsiya demokratik boshqaruvni mustahkamlash va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qancha muhim o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, Konstitutsiyada mustaqil sud hokimiyati o‘rnatilib, adolatli sud muhokamasi huquqi kafolatlanadi.

Shuningdek,bu muhim hujjat so‘z, matbuot va din erkinligini kafolatlaydi. Bundan tashqari, yangi Konstitutsiya parlamentning mamlakat boshqaruvidagi rolini kuchaytirib, prezidentdan muhim tayinlovlar va qarorlar uchun parlamentdan ruxsat olishini talab qiladi. Yangi Konstitutsiyada iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni rag‘batlantirish qoidalari ham mavjud. Masalan, u xususiy mulk huquqlarini kafolatlaydi va xorijiy sarmoya uchun asos yaratadi. Shuningdek, u mamlakat infratuzilmasini yaxshilash, innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qoidalarni ham o‘z ichiga oladi.

Umuman olganda, yangi Konstitutsiya O‘zbekiston uchun katta qadamdir. U mamlakat siyosiy tizimini modernizatsiya qilish, demokratik boshqaruvni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish, iqtisodiy o‘sish va taraqqiyotga ko‘maklashishga qaratilgan. O‘zbekiston xalqi bo‘lajak referendumda ma‘‘qullasa,

yangi Konstitutsiya mamlakatning yanada farovon va demokratik kelajagi uchun poydevor yaratadi. Konstitutsiyada hokimiyatning ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud tarmoqlari o‘rtasidagi vakolatlar aniq chegaralangan holda muvozanat tamoyili belgilab qo‘yilgan. Yangi Konstitutsiyada inson huquqlarining keng doirasi, jumladan, so‘z erkinligi, yig‘ilishlar va uyushmalar tashkil etish erkinligi ham kafolatlangan. U irqi, jinsi, dini va boshqa omillarga ko‘ra kamsitishni taqiqlaydi va inson huquqlari buzilishini taqiqlaydi. Bundan tashqari, Konstitutsiya mulk huquqini ta‘minlash, byurokratiyani qisqartirish va biznes uchun yanada qulay muhit yaratish orqali iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga ko‘maklashishga qaratilgan. Shuningdek, u atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish muhimligini tan oladi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi ijtimoiy adolat, erkinlik va tenglik tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi, inson va davlatning huquqiy holatini belgilashda inson huquqlari ustuvorligi, davlat bilan fuqaroning o‘zaro siyosiy-huquqiy mas‘ulligi prinsiplariga asoslanuvchi tamoyillar yangi konsepsiyaga tayangan bo‘lib, unda ilk bor inson huquqlari kategoriyasi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yilgan.Har bir davlatning o‘z taraqqiyot yo‘li va mustaqil rivojlanish strategiyasi bo‘lganidek, uning huquqiy poydevori - Konstitutsiyasi ham mavjud. Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo‘lib, u mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat organlarining tuzilishi va vakolatlarini belgilab beradi.

Konstitutsiya - bu oddiy qonun emas, balki barcha qonunlarning onasi, huquqiy manbai hisoblanadi. U jamiyatning barcha sohalarida amal qiladigan asosiy tamoyillarni o‘zida mujassam etgan. Konstitutsiyada inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi xalqimizning ko‘p asrlik tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari va umuminsoniy tamoyillarga asoslangan. U fuqarolarning teng

huquqliligini, so‘z, vijdon va diniy e’tiqod erkinligini, shaxsning daxlsizligini, mulk huquqini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning o‘n ikkinchi chaqiriq o‘n birinchi sessiyasida qabul qilingan. Bu tarixiy voqea O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi.

Konstitutsiyani tayyorlash jarayonlari tarixi 1990-yilda boshlangan. Maxsus komissiya tuzilib, u ikki yil davomida loyiha ustida ishladi. Loyiha keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi, unda turli soha mutaxassislari, olimlar, huquqshunoslar va oddiy fuqarolar ishtirok etdi.

Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasidan so‘ng takomillashtirildi va nihoyat, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilindi. Shu kundan boshlab 8-dekabr O‘zbekistonda Konstitutsiya kuni sifatida nishonlanadi.

Shuningdek, 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi unda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganligidan dalolat bermoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Bosh qomusimiz davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linish prinsipini mustahkamlab qo‘ygan. Bu esa hokimiyat organlari faoliyatining samaradorligini ta’minlash va ularning o‘zaro nazoratini amalga oshirish imkonini beradi. Konstitutsiya - bu jamiyat taraqqiyotining huquqiy kafolati, barqarorlik va farovonlik garovidir. Shu sababli ham biz uni "Bosh qomusimiz" deb ulug‘laymiz va uning talablariga og‘ishmay amal qilamiz.

Bugungi kunda davlat boshqaruvida ham, qonunchilik sohasida ham muhim o‘zgarishlarni ro‘yobga chiqarish hayotiy zaruriyatga aylanmoqda. Xalqning farovonligi oshgani sari talab va ehtiyojlarning ham ortib borishi tabiiydir. Bundan shu narsani anglash mumkinki, mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish uchun davlat va jamiyat hayotida tub islohotlarni amalga oshirish zarur. Yangi O‘zbekistonimizni “Ijtimoiy davlat” tamoyili asosida barpo etish Konstitutsiyamizda o‘z aksini topgan. Ta’kidlash joizki, ijtimoiy davlat bu – eng avvalo inson salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyat va munosib hayot kechirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni barpo etish, shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish, umuman olganda inson qadr-qimmatini yuksaltirish hisoblanadi. Bu muqqadas vatanda eng avvalo inson qadrini yuksaltirishga ustuvor ahamiyat qaratilgani ham bejiz emas. Chunki inson qadri har narsadan ulug‘dir.

Shu nuqtayi nazardan olib qarasak, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining birinchi yo‘nalishi “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” deb nomlandi. Mazkur yo‘nalishda respublikamizda istiqomat qilayotgan millati, tili va dinidan qat’iy nazar har bir fuqaroning – butun xalqimizning farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan “Inson qadri uchun” g‘oyasini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Shu asosda mahalliy boshqaruv organlarining muammolarni hal etishdagi roli va mas’uliyatini kuchaytirish maqsadida kelgusida davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga o‘tkazilishi ko‘zda tutildi. Bu esa e’tiborga molik islohotdir. Darhaqiqat, inson qadr-qimmati ulug‘langan yurtning kelajagi porloq bo‘ladi. Zero, Konstitutsiyamizda inson qadr-qimmati va uning haq-huquqlari to‘la o‘z aksini topgan. Xalqaro huquqning milliy huquqiy tizimlarga ta’siri haqida shuni aytish kerakki, ko‘pgina konstitutsiyalarda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalari va prinsiplari milliy konstitutsiyaviy huquqning tarkibiy qismiga kiradi.

Xalqaro huquq prinsiplari va normalarining majmui Konstitutsiyamizga Birlashgan Millatlar Tashkiloti ustavidan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlari”ga oid boshqa xalqaro bitimlardan olib singdirilgan. O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart”. 2020-yilda mamlakatimiz milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy organlaridan biri bo‘lgan Inson huquqlari kengashiga a’zo etib saylangani tarixiy voqea bo‘ldi.

Ajdodlarimizning davlatchilikni mustahkamlash yo‘lidagi g‘oya va fikrlari, ishlari, hayotiy tajribalari Asosiy qonunimizning mezoni qilib olingani e’tiborga loyiqdir. Sohibqiron Amir Temurning “Tuzuklar”ida davlatni boshqarishga oid muhim tartib-qoidalar shunday e’tirof etilgan: “Davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To‘ra va tuzukka tayanib, saltanatda o‘z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat har biri o‘z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo‘lib, undan ortig‘iga da’vogarlik qila olmadi”. Bu fikrlar Amir Temur davlati boshqaruv tizimining asosiy g‘oyasi bo‘lgan va uning hozirgi kundagi ahamiyati ham beqiyosdir. Zero, davlat boshqaruvida qonun, adolat ustuvor vazifa bo‘lib, xalqning orzu-umidlarining ro‘yobga chiqishida muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va boshqa umume’tirof etilgan huquqlari Konstitutsiyada o‘z aksini topgan. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 20-dekabrida Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan murojaatida ta’kidlaganidek: “Hech kimning unutishga haqqi yo‘q – qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat”. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning konstitutsiyaviy kafolatlari mamlakatda

amalga oshirilayotgan islohotlarni jadallashtirishga xizmat qiladi. Qonun ustuvorligi jamiyatning taraqqiy etishida muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyamiz jahondagi yetakchi davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalariga to‘la mos keladi. Ko‘zlagan ezgu maqsad-muddaolarimizga erishishda mustahkam huquqiy asos bo‘ladi. Yangi Konstitutsiya orqali har bir insonning sha’ni va qadr-qimmati huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Yurtimizning insonparvar, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi huquqiy asoslandi. Xalqimiz muallifligida ishlab chiqilgan Yangi O‘zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi mamlakatimiz taraqqiyoti, fuqarolarimiz turmush tarzini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2023
2. Насиров Р.А., Дадашева А.А. История государства и права зарубежных стран.Т.,2023
3. Saidov A.X. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: mustaqil rivojlanishning huquqiy asoslari. T., 2012.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi. // Xalq so‘zi. 2017-yil 20-sentyabr.
5. Abdurauf Fitrat. Oila. – T.: – Ma’naviyat‖, 1998 y. 8-bet. – Yangi O‘zbekiston‖ gazetasi, 2021-yil, 8-dekabr.
6. Насиров Р.А., Дадашева А.А. История государства и права зарубежных стран. - Т., 2023.
7. Saidov A.X. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: mustaqil rivojlanishning huquqiy asoslari. - T., 2012.
8. Насиров Р.А. История государства и праваУзбекистана. Ташкент – 2024.